

TURLI XIL MADANIYATLARDA TILDAGI TIPOLOGIK O'XSHASHLIKLAR

Uktamova Umida Uktamovna

Navoiy Inovatsiya Universiteti

Lingvistika (Ingliz tili) yo'nalishi 1- kurs magistri

[http://e-mail:umidu5683@gmail.com](mailto:umidu5683@gmail.com). +998974177747

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20265205>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisdagi turli xalqlar va madaniyatlarga mansub tillar o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Til tipologiyasi tillarning genetik qarindoshligidan qat'i nazar, ularning grammatik, fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan umumiy belgilarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida agglutinativ, flektiv, analitik va polisintetik tillarning struktur xususiyatlari hamda turli madaniyatlarda shakllangan kommunikativ modellar o'rganildi. Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro ta'siri, universalialar hamda lingvistik tipologiyaning zamonaviy tadqiqotlardagi o'rni haqida ilmiy xulosalar berildi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, madaniy tafovutlarga qaramay, inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari tillarda tipologik o'xshashliklarni yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: Til tipologiyasi, lingvistik universalialar, madaniyatlararo kommunikatsiya, agglutinativ tillar, flektiv tillar, sintaktik struktura, morfologik tizim, fonetik o'xshashlik, til va madaniyat, struktur lingvistika.

Аннотация: В данном научном тезисе с лингвистической точки зрения анализируются типологические сходства между языками, принадлежащими различным народам и культурам. Языковая типология служит для выявления общих грамматических, фонетических, морфологических и синтаксических признаков языков независимо от их генетического родства. В ходе исследования были изучены структурные особенности агглютинативных, флективных, аналитических и полисинтетических языков, а также коммуникативные модели, сформировавшиеся в различных культурах. Кроме того, представлены научные выводы о взаимовлиянии языка и культуры, языковых универсалиях и роли лингвистической типологии в современных исследованиях. Результаты исследования показывают, что, несмотря на культурные различия, общие закономерности человеческого мышления порождают типологические сходства в языках.

Ключевые слова: языковая типология, лингвистическая универсалия, межкультурная коммуникация, агглютинативные языки, флективные языки, синтаксическая структура, морфологическая система, фонетическое сходство, язык и культура, структурная лингвистика.

Abstract: This scientific thesis analyzes the typological similarities between languages belonging to different peoples and cultures from a linguistic perspective. Language typology serves to identify common grammatical, phonetic, morphological, and syntactic features of languages regardless of their genetic relationship. During the research, the structural characteristics of agglutinative, inflectional, analytic, and polysynthetic languages, as well as communicative models formed in different cultures, were examined. In addition, scientific conclusions were presented regarding the interaction between language and culture, linguistic universals, and the role of linguistic typology in modern studies. The research findings

demonstrate that, despite cultural differences, the universal patterns of human thinking give rise to typological similarities in languages.

Keywords: language typology, linguistic universal, intercultural communication, agglutinative languages, inflectional languages, syntactic structure, morphological system, phonetic similarity, language and culture, structural linguistics.

Kirish

Til insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning tili uning madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu bilan birga, turli geografik hududlarda yashovchi xalqlar tillari o'rtasida ma'lum tipologik o'xshashliklar mavjudligi lingvistika fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi [1].

Til tipologiyasi XIX asrda shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi tillarni struktur jihatdan tasniflash va umumiy qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Nemis olimi Vilgelm fon Humboldt tillarni morfologik jihatdan agglutinatív, flektiv va amorf tillarga ajratgan [2]. Keyinchalik Edvard Sepir va Jozef Grinberg tomonidan til universalialari nazariyasi rivojlantirildi [3].

Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi til tizimlaridagi umumiyliklarni chuqurroq o'rganishni talab qilmoqda. Ayniqsa, kommunikativ ehtiyojlar, semantik strukturalar va grammatik modellarning o'xshashligi madaniyatlararo muloqotning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [4].

Lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyodagi ko'plab tillarda gap tuzilishi, zamon kategoriyasi, ot va fe'l tizimlari hamda sintaktik munosabatlarda umumiy tipologik belgilar mavjud. Masalan, turkiy tillar bilan yapon va koreys tillari o'rtasida agglutinatív xususiyatlarning uchrashi bunga yaqqol misoldir [5].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Turli til oilalariga mansub tillarning grammatik va sintaktik tizimlari ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida turkiy tillar, hind-yevropa tillari, xitoy-tibet tillari hamda yapon va koreys tillarining morfologik xususiyatlari o'rganildi. Til birliklarining tipologik o'xshashliklarini aniqlashda Greenberg universalialari, Sapirning struktur tasnifi va Roman Yakobsonning fonologik nazariyalariga tayangan holda ilmiy tahlillar amalga oshirildi [6].

Shuningdek, madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida antropologik lingvistika yondashuvlari ham qo'llanildi. Edvard Sapir va Benjamin Uorf tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik nisbiylik nazariyasi tilning madaniy tafakkur bilan bog'liqligini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi [7].

Natijalar

Tadqiqot davomida turli madaniyatlarda shakllangan tillar o'rtasida quyidagi tipologik o'xshashliklar aniqlandi.

Agglutinatív tillarda grammatik ma'nolar qo'shimchalar orqali ifodalanadi. O'zbek, turk, qozoq, yapon va koreys tillarida so'z o'zagiga grammatik affikslarning ketma-ket qo'shilishi kuzatiladi [8]. Masalan, o'zbek tilidagi “kitoblarimizdan” shakli va turk tilidagi “evlerimizden” so'zlari struktur jihatdan o'xshash hisoblanadi.

Sintaktik jihatdan ko'plab agglutinatív tillarda gap tartibi “ega + to'ldiruvchi + kesim” modeliga asoslanadi. Yapon va koreys tillarida ham fe'ning gap oxirida kelishi kuzatiladi [9].

Fonologik jihatdan dunyo tillarida unli va undosh tizimlari ma'lum universalliklarga ega. Roman Yakobson tadqiqotlariga ko'ra, barcha tillarda unli fonemalar tizimi ma'lum darajada umumiy fonologik qonuniyatlarga bo'ysunadi [10].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, madaniy jihatdan uzoq bo'lgan xalqlar tillarida ham kommunikativ ehtiyojlar sababli umumiy sintaktik va semantik strukturalar shakllangan. Masalan, hurmat kategoriyasi yapon, koreys va o'zbek tillarida turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi [11].

Shuningdek, analitik tillarda grammatik munosabatlar yordamchi so'zlar orqali ifodalanishi aniqlandi. Ingliz va xitoy tillarida grammatik shakllarning kamligi hamda so'z tartibining muhimligi tipologik o'xshashlik sifatida baholandi [12]

Tahlil va muhokama

Til tipologiyasi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi dunyo tillari o'rtasidagi struktur o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan iboratdir. Tipologik tadqiqotlar tillarning genetik qarindoshligiga emas, balki ularning grammatik, fonetik, sintaktik va semantik xususiyatlariga asoslanadi [3]. Shu jihatdan bir-biridan geografik va tarixiy jihatdan uzoq bo'lgan tillar o'rtasida ham umumiy lingvistik qonuniyatlar kuzatiladi. Bu esa til tizimining inson tafakkuri va kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Til tipologiyasi masalalari XIX asrda Vilgelm fon Gumboldt tomonidan chuqur o'rganilgan. U tilni “xalq ruhining tashqi ifodasi” sifatida baholagan va tillarning ichki strukturasi inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liqligini ta'kidlagan [2]. Gumboldt fikricha, har bir xalqning madaniyati va tafakkuri uning tilida aks etadi. Shu bilan birga, insoniyatning umumiy fikrlash mexanizmlari sababli turli tillarda o'xshash grammatik va semantik strukturalar yuzaga keladi. Masalan, deyarli barcha tillarda predmetni ifodalovchi otlar va harakatni ifodalovchi fe'llar mavjud. Bu holat tilning universal kommunikativ ehtiyojlardan kelib chiqishini tasdiqlaydi.

Tipologik o'xshashliklarning eng muhim ko'rinishlaridan biri morfologik tizimda kuzatiladi. Tilshunoslikda tillar asosan agglutinatív, flektiv, amorf va polisintetik turlarga bo'linadi [6]. Agglutinatív tillarda grammatik ma'nolar ketma-ket qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, yapon va koreys tillari bunga misol bo'la oladi. Masalan, o'zbek tilidagi “uyalarimizdan” shaklida har bir qo'shimcha ma'lum grammatik vazifani bajaradi: “-lar” ko'plikni, “-imiz” egalikni, “-dan” esa chiqish kelishigini bildiradi. Xuddi shu hodisa turk tilidagi “evlerimizden” shaklida ham kuzatiladi [8]. Bu o'xshashlik tillarning qarindoshligi bilan emas, balki struktur tashkil topish usuli bilan bog'liq.

Yapon va koreys tillarida ham agglutinatívlilik kuchli rivojlangan. Ushbu tillarda grammatik ma'nolar maxsus affikslar yordamida ifodalanadi va gap tuzilishida kesim odatda oxirgi pozitsiyada keladi [9]. Masalan, yapon tilidagi “Watashi wa hon o yomimasu” gapida fe'l oxirida joylashadi. O'zbek tilida ham “Men kitob o'qiyman” gapida kesim gapning oxirida keladi. Bu tipologik o'xshashliklar kommunikativ strukturaning umumiy qonuniyatlarini ko'rsatadi.

Til tipologiyasida sintaktik universalialar muhim ilmiy ahamiyatga ega. Amerikalik olim Jozef Grinberg dunyo tillarini qiyosiy tahlil qilish asosida bir qator lingvistik universalialarni ishlab chiqqan [6]. Unga ko'ra, agar tilda postpozitsiyalar mavjud bo'lsa, odatda kesim gap

oxirida joylashadi. Bu holat turkiy tillar, yapon va koreys tillarida aniq kuzatiladi. Aksincha, ingliz va fransuz tillarida predloglar qo'llanadi va kesim odatda gapning o'rtasida joylashadi. Demak, sintaktik tuzilma bilan grammatik vositalar o'rtasida muayyan qonuniy bog'liqlik mavjud.

Shuningdek, analitik tillarda grammatik ma'no yordamchi so'zlar va qat'iy so'z tartibi orqali ifodalanadi. Ingliz va xitoy tillari bunga misol bo'ladi [12]. Masalan, ingliz tilida zamon shakllari ko'pincha yordamchi fe'llar orqali ifodalanadi: “I will go”, “I have gone”. Xitoy tilida esa grammatik ma'no ko'proq intonatsiya va yordamchi birliklar orqali ifodalanadi. Bu tillarda morfologik o'zgarishlar kam bo'lsa-da, sintaktik tartib juda muhim hisoblanadi. Shu jihatdan analitik tillar o'rtasida tipologik yaqinlik kuzatiladi.

Fonologik tizim ham tillar o'rtasidagi universalliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Roman Yakobson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dunyo tillarining aksariyatida “a”, “i”, “u” unillarining mavjudligi qayd etilgan [10]. Bu holat inson nutq apparatining biologik imkoniyatlari bilan bog'liq. Fonologik universalialar inson fiziologiyasi va til tizimi o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'plab tillarda ochiq bo'g'inlarning ustunligi ham fonetik universallik sifatida baholanadi.

Madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi tipologik o'xshashliklarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Antropologik lingvistika vakillari Edvard Sapir va Benjamin Uorf til insonning dunyoni anglashiga ta'sir qilishini ta'kidlaganlar [7]. Ularning fikricha, til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi mexanizm ham hisoblanadi. Masalan, sharq xalqlari tillarida hurmat kategoriyasining rivojlanganligi ularning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari bilan bog'liq. O'zbek tilidagi “siz” shakli, yapon tilidagi “-san”, “-sama” qo'shimchalari va koreys tilidagi maxsus hurmat fe'llari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi [11].

Hurmat kategoriyasining rivojlanganligi ayniqsa Sharq madaniyatiga xos lingvistik hodisa sifatida qaraladi. O'zbek tilida kattalarga yoki notanish shaxslarga nisbatan “siz” shakli qo'llanadi. Yapon tilida esa hurmat ifodalash uchun alohida grammatik shakllar va leksik birliklar mavjud. Masalan, oddiy “taberu” fe'li o'rniga hurmat ma'nosida “meshiagaru” ishlatiladi [9]. Bu holat til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Til tipologiyasida semantik universalialar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Deyarli barcha tillarda qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi antonim juftliklar mavjud: katta-kichik, yaxshi-yomon, issiq-sovuq kabi [4]. Bu inson tafakkurining umumiy mantiqiy strukturalarga asoslanishini ko'rsatadi. Shuningdek, rang nomlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham dunyo tillarida asosiy rang kategoriyalarining o'xshashligi aniqlangan. Brent Berlin va Pol Key tadqiqotlariga ko'ra, tillarda rang nomlari ma'lum ketma-ketlik asosida shakllanadi [12].

Madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida tipologik o'xshashliklar muhim amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro aloqalar rivojlangan hozirgi davrda turli tillar vakillari o'rtasidagi muloqot samaradorligini oshirish uchun umumiy lingvistik qonuniyatlarni bilish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, tarjimashunoslikda tipologik tahlil muhim rol o'ynaydi. Masalan, agglutinativ tillardan analitik tillarga tarjima qilishda grammatik strukturalarni moslashtirish talab etiladi. O'zbek tilidagi qo'shimchalar orqali ifodalangan ma'nolar ingliz tilida yordamchi so'zlar yordamida beriladi.

Zamonaviy kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalarida ham tipologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mashinali tarjima tizimlari tillar o'rtasidagi

struktur o'xshashliklarga asoslanadi. Google Translate yoki boshqa avtomatik tarjima platformalari grammatik modellarning qiyosiy tahliliga tayangan holda ishlaydi. Til universalialarini aniqlash sun'iy intellekt tizimlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Globalashuv jarayonlari ham tillar o'rtasidagi tipologik yaqinlashuvni kuchaytirmoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari va xalqaro iqtisodiy aloqalar natijasida tillarda yangi leksik va sintaktik birliklar shakllanmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro til sifatida keng tarqalishi boshqa tillarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda [12]. Bugungi kunda ko'plab tillarda ingliz tilidan kirib kelgan terminlar va grammatik konstruksiyalar uchraydi. Masalan, “online”, “marketing”, “internet”, “manager” kabi birliklar turli tillarda faol qo'llanmoqda.

Biroq globalashuv jarayonlari ayrim milliy tillarning o'ziga xos tipologik xususiyatlariga ham ta'sir qilmoqda. Ayrim kichik tillarda grammatik soddalashuv va leksik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu esa lingvistik xilma-xillikning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda milliy tillarning tipologik xususiyatlarini saqlash muhim ilmiy va madaniy vazifa sifatida qaralmoqda.

Til tipologiyasi xorijiy tillarni o'qitish metodikasida ham katta ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi o'quvchining ona tili bilan o'rganilayotgan til o'rtasidagi tipologik o'xshashlik va farqlarni bilsa, ta'lim samaradorligi oshadi. Masalan, o'zbek tilida gap oxirida kesim kelgani sababli ingliz tilidagi qat'iy so'z tartibini o'rganish ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, yapon tilini o'rganishda o'zbek talabalariga sintaktik strukturaning o'xshashligi ma'lum qulaylik yaratadi.

Tipologik tadqiqotlarning yana bir muhim jihati tarixiy tilshunoslik bilan bog'liqdir. Ayrim tipologik o'xshashliklar tillar o'rtasidagi uzoq tarixiy aloqalar natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari tillarida arab va fors tillarining ta'siri sezilarli darajada uchraydi. Bu esa madaniy va tarixiy aloqalarning lingvistik tizimga ta'sirini ko'rsatadi.

Dunyo tillarida son kategoriyasi, egalik shakllari, zamon tizimi va modal birliklarning mavjudligi ham universal xususiyat sifatida baholanadi [6]. Insoniyatning kommunikativ ehtiyojlari umumiy bo'lgani sababli tillarda o'xshash grammatik kategoriyalar shakllangan. Biroq har bir til bu kategoriyalarni ifodalashda o'ziga xos vositalardan foydalanadi.

Zamonaviy lingvistika til universalialarini faqat grammatik jihatdan emas, balki pragmatik va kognitiv nuqtayi nazardan ham o'rganmoqda. Kognitiv tilshunoslik vakillari tilning inson tafakkuri bilan bog'liqligini asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko'radilar. Ularning fikricha, dunyo tillaridagi tipologik o'xshashliklar inson miyasining umumiy ishlash mexanizmlari bilan bog'liq.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turli madaniyatlarda shakllangan tillar o'rtasida ko'plab tipologik o'xshashliklar mavjud. Bu o'xshashliklar grammatik, sintaktik, fonologik va semantik sathlarda namoyon bo'ladi. Til tipologiyasi inson tafakkurining universal xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim lingvistik yo'nalish hisoblanadi.

Agglutinativ tillarning struktur yaqinligi, analitik tillardagi sintaktik o'xshashliklar hamda kommunikativ ehtiyojlar asosida shakllangan universalialar turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, globallashuv sharoitida tillar o'rtasidagi tipologik yaqinlashuv kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon lingvistika, tarjimashunoslik va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Раҳматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. – Тошкент: Университет, 2006. – 45–52-бетлар.
2. Humboldt W. *On Language: The Diversity of Human Language Structure*. – Cambridge University Press, 1988. – pp. 112–130.
3. Sapir E. *Language: An Introduction to the Study of Speech*. – New York: Harcourt Brace, 1921. – pp. 127–145.
4. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge University Press, 2010. – pp. 75–89.
5. Comrie B. *Language Universals and Linguistic Typology*. – Chicago University Press, 1989. – pp. 34–56.
6. Greenberg J. *Universals of Language*. – MIT Press, 1963. – pp. 58–90.
7. Whorf B. *Language, Thought and Reality*. – MIT Press, 1956. – pp. 134–159.
8. Sodiqov Q. *Turkiy tillar tipologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2004. – 67–81-бетлар.
9. Shibatani M. *The Languages of Japan*. – Cambridge University Press, 1990. – pp. 211–239.
10. Jakobson R. *Fundamentals of Language*. – Hague: Mouton, 1956. – pp. 45–61.
11. Brown P., Levinson S. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge University Press, 1987. – pp. 94–118.
12. Fromkin V., Rodman R. *An Introduction to Language*. – Boston: Cengage Learning, 2011. – pp. 201–226.